

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAGI HAYVONLAR OBRAZLARI TASNIFI

Xuramova Dilorom Xamroqulovna

Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumani 25-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

E-mail: xuramova.dilorom@bk.ruDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21932635>

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida jonivorlar obrazining yaratilishida o‘zbek folklori-xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni beqiyosdir. Kichik janrlardan tortib, eposlargacha hayvonot olami, uning ramziylik va didaktikaga yo‘g‘rilgan qiyofasi aks etadi.

Kalit so‘zlar: hayvonot olami, maqol, masal, ertak, Semurg‘, Anqo, Humo, Burgut.

Аннотация. Роль узбекского фольклора и устного народного творчества в создании образов животных в узбекской литературе трудно переоценить. От малых жанров до эпических произведений широко отражается мир животных, а также его образ, наполненный символизмом и дидактическим содержанием.

Ключевые слова: животный мир, пословица, басня, сказка, Симург, Анка, Хумо, орёл.

Abstract. The role of Uzbek folklore and oral folk literature in the creation of animal characters in Uzbek literature is invaluable. From minor genres to epic works, the animal world and its image imbued with symbolism and didactic meaning are widely reflected.

Keywords: animal world, proverb, fable, fairy tale, Simurgh, Anqa, Huma, eagle.

O‘zbek adabiyotida jonivorlar obrazining yaratilishida o‘zbek folklori-xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni beqiyosdir. Kichik janrlardan tortib, eposlargacha hayvonot olami, uning ramziylik va didaktikaga yo‘g‘rilgan qiyofasi aks etadi. Maqol, masal janri namunalari-yu, hayvonlar haqidagi ertaklargacha barcha janrlarga jonzotlar obrazimiz yorqin va jonli, insonlar teng ravsihda ishtirok etganligiga guvoh bo‘lamiz. Bunda qush obrazlaridan boshlab, yovvoyi va uy jonivor obrazlari tasviri o‘ziga xos badiiyati bilan yaxshilik va yomonlik kabi zid tushunchalarning xalqimiz ongidagi jonli ifodasi bo‘lib namoyon bo‘ladi.

Folklor asarlarda mifologik qush obrazlariga Semurg‘, Anqo, Humo, Burgut, Qaldirg‘och, G‘oz, Laylak kabi misol bo‘la oladi. Mifologik qushlar folklor asarlar kompozitsiyasida turli xil vazifalarni bajardi: homiy kuch, yaratuvchi, ilohiy qudrat timsoli bo‘lib, ular ertak va dostonlarda ko‘p vazifalarni ado etadi. Qushlarning vazifaviy harahatida insonga yordam berish, uni himoya qilish, qahramonning jasorat ko‘rsatishiga va maqsadiga erishishida ko‘maklashuvchi ezigulik namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq ertaklari orasida kabutar, musicha, qarg‘a, kaklik, bulbul kabi kichik qushlarning ham mifik asosga ega obrazlari nisbatan kamroq bo‘lsa-da uchraydi. Ular ertaklarda kelajakdan xabar beruvchi, ogohlantiruvchi, muammolarga qanday qilsa yechim topilishidan darak beruvchi sifatida tasvirlanadi. Xususan, “Ovchi, Ko‘kcha va Dono” yoki bo‘lmasam ertaklarda an‘anaviy boshlanmalardagi “...qarg‘a qaqimchi ekan, chunchuq chaqimchi, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan...” kabilarni misol keltirishimiz mumkin[1].

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janr namunalarida ot obraziga duch kelamiz. Ushbu janrlarning har birining tabiatiga ko‘ra ot obrazi ham turli mazmun va ma‘no kasb etadi. Maqol, ibora, qo‘shiq, naql, ertaklar va dostonlardagi ot obrazi, ularning asar tarkibidagi badiiy funktsiyalari o‘zaro qiyos qilinsa, bu farq va o‘ziga xoslik aniq namoyon bo‘ladi. Fikrimizni bevosita bir qator misollar bilan tasdiqlab ko‘rishimiz mumkin. Masalan: ot obrazi ishtirok etuvchi ushbu maqollarga diqqat qiling:

El qo‘ngan yerin bilar,

Ot to‘ygan yerda tinar

Ot oyog‘idan topar,

Odam qo‘lidan.

Ot bo‘lari qulunligidan belgili,

Er bo‘lari lo‘laligidan belgili.

Keltirilgan maqollardagi ot obrazi bilan bog‘liq fikr xalqning bevosita bilim va tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan falsafiy xulosalarini ifodalashda xizmat qilmoqda[2].

“Dostonlarda ot juda muhim o‘rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi, qahramonga katta yordam beradi. Qahramon otga ega bo‘lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik

dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli o‘ldoshi va yaqin do‘stidir”[4].

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida go‘rda tug‘ilgan chaqaloqning jinsini aniqlash uchun egardan foydalaniladi. “Sinab bilayin, shu bola o‘g‘ilmikin, qizmikini”, deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo‘ydi. Ikki qo‘g‘irchoq bilan ro‘molni go‘rning bir yog‘iga qo‘ydi. Poylab yotdi. Go‘ro‘g‘li... egarni minib, “chuv-ha, chuv-ha, ot qo‘y, qaytma, boxabar bo‘linglar”, – deb egarni asta-asta qimirlatib, go‘rdan ancha uzoqlab ketdi”[1].

Alpomish va Boychibor, Go‘ro‘g‘li va G‘irko‘k dostonlarda bosh qahramon sifatida yonma-yon ishtirok etar ekan, Alpomish va Go‘ro‘g‘lining qahramonlik sifatлари, tashqi qiyofasi, ichki ruhiy olami Boychibor va G‘irko‘k vositasida yuksak badiiy mohiyat kasb etadi. Ba‘zi o‘rinlarda baxshi asar syujet va kompozitsiyasidan ot timsoli tavsifiga shu qadar keng o‘rin beradiki, asarning bosh qahramoni ot emasmikin, degan mulohazalar ham paydo bo‘ladi. Chunki, Boychibor, G‘irko‘k har bir dostonida o‘z raqiblariga, nasl jihatdan yaqinlariga ega bo‘libgina qolmasdan, balki ular bilan munosabatga kirishadi. Baxshi ot obrazini mukammal suvratda yuksak pafosda namoyon etish jarayonida tinimsiz ishlaydi, boshqa baxshilarning tajribalarini o‘rganadi va ayni choqda o‘zining individual yo‘nalishi bilan maydonga chiqadi. Baxshi ot obrazini yaratishda xalq og‘zaki ijodidagi mavjud an‘analarga amal qiladi. Dostonning bosh qahramoni nechog‘lik murakkab holatlarni boshidan kechirsa, uning oti ham shu vaziyatlarda sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkaziladi. Aksari holatlarda haqiqiy tulpot otning tashqi qiyofasi ko‘rimsiz tasvirlanishi ham mumkin. Bu holat ham o‘ziga xos an‘anaga ega[2].

“Alpomish” dostonida Hakimbek ot to‘dasiga uch marta to‘riq otganda har safar to‘riq Boychiborga tushadi. Savol tug‘iladi: Alpomish nima uchun ikkinchi va uchinchi marta to‘riq tashladi? Javob: Alpomish Boychiborning haqiqiy tulpot ekanligini aniqlay olmagan edi. Ayni shu holat “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham ko‘zga tashlanadi. Sinchi Ravshan holvachining ko‘rinishidan qirchang‘i ko‘ringan oti deb ko‘r qilinadi. (Bu o‘rinda Ko‘kaldoshning sinchisi taqdirini yana bir bor esga olish mumkin). Ammo Ravshan qo‘lga kiritgan ot G‘irko‘k emas edi. G‘irko‘k paydo bo‘lguniga qadar butun bir avlod taqdiri o‘tib ketadi. Fikrimizcha, xalq eposida ot obrazining yaratilishi va ishlanishi bosh qahramonning xarakterini mukammallashtirish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. zbek xalq qahramonlik eposi uchun xos bo‘lgan bir hodisa borki, ba‘zan qahramon otini uning do‘sti minadi[3].

Masalan, “Alpomish”dagi poygada Alpomish nomidan poygada Boychibor bilan Qorajon qatnashadi. To‘g‘ri, bu tinglovchi uchun biroz g‘ayritabiiy tuyulishi, nega endi Alpomishning o‘zi poygada qatnashmaydi, kabi savollarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu lavhani “chin do‘stlikning badiiy talqini” tarzda izohlash esa juda jo‘n bo‘lar edi. Biz etnografiyaga doir ma‘lumotlarda qadim ajdodlarimiz ot va egasini birgalikda ko‘mgani, ot va turkning bir-biriga naqadar yaqinligi haqidagi fikrlarni keltirgan edik. Chunonchi, ot to‘g‘risidagi mifik tasavvurlarga ko‘ra, ot va qahramon bir-biriga teng, bir-biridan ajralmasdir. Otning g‘alabasi egasining g‘alabasidir.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi namunalarida hayvonlar obrazlari xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribasini badiiy ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Ularning tasnifi hayvonlarning ramziy, tarbiyaviy va estetik vazifalarini ochib berishga xizmat qiladi. Ertak, masal va dostonlarda hayvonlar obrazi ezgulik, mardlik, ayyorlik, sadoqat kabi umuminsoniy fazilatlarini ifodalab, xalq og‘zaki ijodining g‘oyaviy-badiiy qimmatini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Aytuvchi: Po‘lkan shoir. – Toshkent, 1967. – B. 54.
2. Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. O‘zbekiston xalq ijodi. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Zarifov H.T. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar. Jangovar otning qadimiy asoslariga doir // O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob Po‘lkan shoir. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 65.